

JISMONIY TARBIYA BO'YICHA DAVLAT STANDARTLARINI ME'YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**Toshpo'latov Abrorjon Mirhokimovich***Farg'ona Davlat universiteti harbiy talim fakulteti o'qituvchisi
+998947137777*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning pedagogik xususiyatlari yoritib berish bilan birgalikda jismoniy tarbiya bo'yicha davlat standartlarini me'yoriy ma'lumotlar berilgan. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarni jismoniy tarbiyasi mazmunini ta'lim tizimida taklif qilinayotgan innovatsiyalarni e'tiborga olgan holda modernizatsiya qilish zarurligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy tarbiya, davlat standartlari, sport musobaqalari, harbiy-sport, o'quv yig'inlari, o'quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligi, harbiy xizmatga yo'naltirilgan, baholash mezonlari.*

Kirish

Respublikamizda harbiy-vatanparvarlik tizimining tarkibiy qismi sifatida Temurbeklar maktablari faoliyati kengayib bormoqda, ularning o'quvchilarida jismoniy va psixologik tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari, amaliy mashg'ulotlar, kompleks testlar joriy etilmoqda, harbiy xizmatga yo'naltirilgan sport tayyorgarligi shakllantirilmoqda, yoshlar o'rtasida sport musobaqalari, harbiy-sport bellashuvlari, ixtisoslashtirilgan o'quv yig'inlari tashkil etilmoqda, bunda ephillik, chidamlilik, kuch, tezlik, muvozanatni saqlash, koordinatsiyani rivojlantirish, stressga bardoshlilik va buyruqni aniq bajarish kabi jihatlarga e'tibor kuchaymoqda, maxsus sport inshootlari, zamonaviy trenajyorlar, texnik vositalar bilan ta'minlash ishlari olib borilmoqda, mutaxassislar tomonidan yangicha yondashuvlar va metodik tavsiyalar asosida mashg'ulotlar tashkil etilmoqda, harbiy tayyorgarlik bilan sport o'rtasidagi integratsiya kuchaymoqda, yoshlar jismoniy rivoji ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda, davlat siyosati bu borada kompleks strategiyalarga asoslanmoqda, Prezident qaror va farmonlari bilan bu yo'nalish izchil rivojlanmoqda, jismoniy tayyorgarlikni baholash mezonlari doimiy takomillashmoqda, zamonaviy sport psixologiyasi va biomexanika yondashuvlari tadbiq etilmoqda, natijada mamlakatimizda bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, mazkur mavzuning dolzarbligicha qolmoqda.

Davlatimizning mustaqilligi ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan birini jismoniy tarbiya bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim tizimi amaliyotiga joriy qilishni ilgari surdi. Jismoniy tarbiya sohasidagi amaldagi dasturiy-me'yoriy xujjatlar, uning mazmun qismini bajarishga yo'naltirilgan edi, unda, O'zbekiston Respublikasining xududiy xususiyatlari hisobga olinmagan.

Davlat standartlarining me'yoriy asoslarini tuzish masalalarini nazariy tahlil qilmasdan turib va umumiy tamoyillarni ishlab chiqish zaruratisiz, uchun jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv standartlarining me'yoriy talablarini ishlab chiqish asosiga joriy qilishni maqsadga muvofiqligi ko'rinib turibdi.

Mazkur dalil quyidagilar to'g'risida dalolat beradi:

1. Yoshlarni jismonan takomillashtirish maqsadida o'tkaziladigan pedagogik tadbirlar tizimi samarali emas va odamni maishiy, mehnat va mudofaa faoliyatidagi jismoniy qobiliyatlariga qo'yiladigan talablarni qoniqtirmaydi;

2. Odam motorikasi ma'lum bir yoshga oid konstantalarga ega bo'lib, ular, faqatgina ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa omillar vaqtida o'zgaradi.

O'quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligi darajasini pastligini belgilaydigan sabablar majmuasida davlat standartlarini sifati va funktsiya qilishi darajasi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi, deb taxmin qilish to'g'ri. O'quv-pedagogik jarayon jismoniy tarbiya bo'yicha dasturlar bilan reglamentlanadi, uning sifati va uzluksizligi o'quv dasturlarining didaktik va me'yoriy mazmunini ilmiy asoslanganligiga ancha darajada bog'liq.

Jismoniy tarbiyaning me'yoriy asosi to'g'risida shakllangan tasavvur jismoniy tarbiya bo'yicha dasturlarni ilmiy asoslash yo'llarini izlashning muhimligini ko'rsatadi. Ta'lim muassasalari uchun harakatdagi standartlar jamiyatni jismoniy imkoniyatlarga qo'yadigan talablariga, shartlariga va ehtiyojlariga faqat qisman javob beradi.

Jismoniy tarbiyaning zamonaviy moddiy bazasi, ilm-fan va texnikani, fanning nazariyasi va amaliyotini o'sishi, jismoniy tarbiya tizimining me'yoriy asosini yanada takomillashtirish zaruratini chaqiradi.

O'quv dasturlarining mazmun qismini ilmiy asoslash masalalari keng miqyosda ishlab chiqilmagan va yoritilmagan. Jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturlarni takomillashtirish muammolari juda kam va tizimlashtirilmagan nashriy ishlarda muhokama qilingan, ularning ko'pchiligida, asosan kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik masalalari ko'rib chiqilgan.

Ma'lum vazifalarni qo'yish orqali ifodalanadigan vazifalar, o'zini ma'lum bir miqdoriy ifodasiga ega bo'lgan standartlarning me'yoriy mazmunini ishlab chiqishda an'anaviy shakllangan amaliyotni o'zgartirish kerak.

Me'yorga xos bo'lgan o'rnatuvchi, nazorat va rag'batlantiruvchi funktsiyalar baholash tizimi orqali hal qilinadi. O'quv me'yoring darajasini pedagogik jarayon va jismoniy tarbiyaning yakuniy bosqichini maqsadi reglamentlaydi. Shu tufayli o'quv me'yorlarini ilmiy ishlab chiqishni va ularni quyidagi sxema bo'yicha amalga oshirishni maqsadga muvofiqi to'g'risida tavsiyalar berishgan:

1. Ko'p o'lchamli statistika (omilli tahlil) yordamida amalga oshiriladigan nazorat predmeti aniqlanadi. Omilli matrisaga kiradigan testlar to'plamiga bog'liq bo'lmagan holda, barcha holatlarda tanlashning umumiy dispersiyasiga eng katta ulush bilan motorikaning quyidagi tomonlarini tavsiflovchi omillar ajratiladi:

- a) tezkorlik tayyorgarligi;
- b) umumiy kuch tayyorgarligi;
- v) «faol» egiluvchanlik;
- g) muvozanat;
- d) tezkor-kuch tayyorgarligi;
- y) chidamlilik.

2. Testlarning matematik nazariyasi usullarini qo'llash bilan amalga oshiriladigan nazorat vositalarini aniqlash.

Ilmiy tadqiqotlarda ko'pincha, jismoniy tarbiya amaliyotida ko'p qo'llaniladigan harakat vazifalarining har xil to'plamlarini qayta tiklanishi, obyektivligi, barqarorligi va informativligi

aniqlanadi. Harakat sifatlarini testlash amaliyoti uchun yetarlicha qayta tiklanishga ega bo‘lgan testlar aniqlangan. Qayta tiklanish koeffitsiyenti kattaligini yoshga va jinsga bog‘liqligi dalilini jismoniy tayyorgarlikning o‘quv me‘yorlarini ishlab chiqish vaqtida hisobga olish zarur.

3. Jismoniy tayyorgarlikning dastlabki darajasini hisobga olish, o‘quvchi-yoshlarning jismoniy tayyorgarligi darajasi bilan zaruriy tartibdagi kattalik sifatida ilgari chiquvchi o‘quv me‘yori o‘rtasidagi nomuvofiqlikning kattaligini baholash imkonini beradi.

Xulosalar

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, hozirgi kunda o‘smir yoshlarning jismoniy tayyorgarligi va ularni vatan mudofaasiga tayyorlash bo‘yicha hukumatimiz tomonidan bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘quvchi yoshlarimizni o‘z Vataniga va Prezidentiga sodiq bo‘lgan, intellektual salohiyatli, sog‘lom va jismonan baquvvat avlod etib tarbiyalash vazifasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Buning uchun avvalo Temurbeklar harbiy akademik litseyi yuqori sinif o‘quvchilarining jismoniy tarbiya fanlarida o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarligini qurolli kuchlar saflarida belgilangan me‘yor talablari darajasiga olib chiqish, Temurbeklar maktablari o‘quvchilarida muhim amaliy malaka va ko‘nikmalarni singdirish muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Toshpo‘latov Abrorjon Mirxakimovich Ta‘lim muassasalarida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning pedagogik xususiyatlari” o‘zbekiston milliy universiteti xabarleri, 2023, [1/7] материаллари -Toshkent 2023.-Б.182-185.

2. Mirkhokimovich T.A. (2022). Psychological preparation of military personnel for a combat situation. MiastoPrzyszołci, 28 , 240-241.

3. Toshpo‘latov Abrorjon Mirxakimovich Yoshlarni harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi Pedagog respublika ilmiy jurnali 6 - Tom 4 - son / 2023 - yil / 15 - Aprel

4. Mirkhokimovich T.A. (2022). The physical generation is the backbone of a mature army. texas magazine interdisciplinary research , 7 , 356-357.

5. Ortikovich U.A., Mirkhokimovich T.A., Khoshimovich A.B. and Ibragimovich A.I. (2022).SERVICE TO THE COUNTRY - HOLY DUTY. CREATIVE TEACHER , 2 (19), 606-608.

6. Yakubov, M. S., Turakhanov A. A., Toshpulatov A. M. MAIN DIRECTIONS OF MILITARY AND PATRIOTIC EDUCATION OF PRE-LIFE PREPARATION OF YOUTH FOR MILITARY SERVICE. JOURNAL ,

7. Toshpo‘latov Abrorjon Mirxakimovich Chaqiriluvchilarni jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash uslubiyoti O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 18-son ilmiy tadqiqotlar jurnali 20.04.2023